



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand markaziy GQE

boshlig'i

S.Yu. Nematullayev

« 13 » 03 2024 yil

Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Shimoliy-Nurota DE
xodimlari safida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI № 5

2024 yil 13 mart

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Samarqand markaziy GQE Shimoliy-Nurota DE geologik namunalarga
ishlov berish, saqlash uchastkasi Ko'kcha sexi xodimlari, jami-10 nafar.

Yig'ilishni Samarqand markaziy GQE boshlig'i S.Yu.Nematullayev ochib, ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar, ishlab chiqarish intizomi, oylik ish haqi va qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirish tartibini tushuntirdi. Ishchi xodimlar ham ish haqlari to'lovlari o'z vaqtida to'lanayotganligi, metall chiqindilar rejasini bajarish yoki boshqa sabablar bilan oylik ish haqlaridan pul ushlash, metallom topshirmaganligi uchun pul yig'ish yoki talab qilish singari salbiy holatlar mavjud emasligini bildirishdi.

Samarqand markaziy GQE korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodim A.B.Olmasov, yig'ilish ishtirokchilarini “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlari bilan tanishtirdi. Xususan, axloq kodeksining tamoyil va maqsadlari, kasbiy madaniyat hamda xizmat faoliyatga oid qoidalar, shuningdek, Jamiyatning mulkiga va ma'lumotlariga bo'lgan munosabat, axloq kodeksiga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik masalalari borasida ma'lumotlar berildi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati, manfaatlar to'qnashuvi va yaqin qarindoshlar tushunchasiga ta'rif berildi. Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati, xabar berish usullari, aloqa kanallari, jalb qilingan xodimning huquqlari Ushbu siyosatning maqsadi, vazifalari, tamoyil va qoidalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

Q A R O R

1. Samarqand markaziy GQE va tizim osti dala ekspeditsiyalari ishchi xodimlarida korrupsiyaga qarshi muvofiqlik munosabat shakllantirish maqsadida “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlarini Markaziy va dala ekspeditsiyalarida muhokama qilish hamda shu mavzuda davra suhbatlari o'tkazish.

Bayonnoma tuzdi:

A.B. Olmasov